



"O'QISH" FANINING DIDAKTIK FUNKSIYALARI VA ULARNI AMALGA OSHIRISH YO'LLARI

Zulfiyaxon To'ychiyeva Abdulxamid qizi

O'zbekiston, Qo'qon DU tayanch doktoranti (PhD)

zulfiyatoychiyeva40@gmail.com

ORCID: 0009-0004-7796-2328

tel: 94-552-50-69

Rezyume: Boshlang'ich sinflarda ta'limni samarali tashkil etishda "O'qish" fani markaziy o'rinni egallaydi. Uzluksiz ta'limning mazkur bosqichida "O'qish" fanini o'qitishning ahamiyati uning didaktik imkoniyatlari kengligi bilan belgilanadi. Binobarin, mazkur fanni o'qitish orqali o'quvchilarda savodxonlikni shakllantirish, nutqni boyitish, fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, dunyoqarashni kengaytirish, muloqot va ijtimoiylashuv ko'nikmalarini mustahkamlash, badiiy tasavvurni hamda ijodiy qobiliyatni rivojlantirish, axborot bilan ishlash malakalarini shakllantirish, kitobxonlikka o'rgatishdan iborat turkum vazifalar hal qilinadi. Maqolada "O'qish" fanini o'qitish asosida namoyon bo'ladigan didaktik imkoniyatlarning tavsifi yoritilgan.

Tayanch tushunchalar: "O'qish" fani, boshlang'ich sinf, boshlang'ich sinf o'quvchilari, didaktik imkoniyat, "O'qish" fanining didaktik imkoniyatlari.

Резюме: В эффективной организации обучения в начальных классах предмет «Чтение» занимает центральное место. Значимость преподавания данного предмета на этом этапе непрерывного образования определяется широтой его дидактических возможностей. В частности, в процессе обучения чтению решается комплекс задач, направленных на формирование у учащихся грамотности, развитие речи, совершенствование мыслительных способностей, расширение кругозора, укрепление навыков общения и социализации, развитие художественного воображения и творческих способностей, формирование умений работы с информацией, а также приобщение к культуре чтения. В статье раскрывается характеристика дидактических возможностей, проявляющихся в процессе преподавания предмета «Чтение».

Ключевые понятия: предмет «Чтение», начальные классы, учащиеся начальных классов, дидактические возможности, дидактические возможности предмета «Чтение».

Abstract: In the effective organization of primary education, the subject "Reading" occupies a central place. The importance of teaching this subject at this stage of continuous education is determined by the breadth of its didactic potential. In particular, the process of teaching reading addresses a range of tasks aimed at developing students' literacy, enriching their speech, improving thinking abilities, broadening their worldview,



**FARZAND TARBIYASIDA OTA-ONALAR ROLI:
ZAMONAVIY PEDAGOGIK VA
PSIXOLOGIK YONDASHUVLAR**
mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya




strengthening communication and socialization skills, fostering artistic imagination and creativity, and forming skills for working with information, as well as cultivating a reading culture. The article highlights the characteristics of the didactic opportunities manifested in the teaching of the subject “Reading”.

Key words: “Reading” as a subject, primary classes, primary school students, didactic potential, didactic potential of the subject “Reading”.

Shaxsning shakllanishida boshlang‘ich ta‘lim muhim bosqich sanaladi. Aynan mana shu davrda uning savodli, ma‘lumotli, bilimli bo‘lishini ta‘minlovchi dastlabki poydevor qo‘yiladi. Ma‘lumki, poydevor qanchalik mustahkam bo‘lsa, uning negizida barpo qilinadigan asos shunchalik puxta bo‘ladi. Pedagogik nuqtayi nazardan esa amalga oshiriladigan ta‘limiy jarayonning izchilligi samarali ta‘minlanib, dinamik, evolyutsion, dialektik xarakter kasb etadi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining savodxon bo‘lishi, nutqining boyitilishi, atrofdagilar bilan samarali muloqot qila olishlari uchun lug‘at “zahirasi”ni yaratishda “O‘qish” darslari muhim o‘rin tutadi.

Boshlang‘ich sinflarning o‘quv jadvaliga “O‘qish” darsining kiritilishi o‘quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlari, ijtimoiy ko‘nikma, malakalarga hamda ulargagina xos bo‘lgan “hayotiy” tajribaga egalik kabi jihatlar inobatga olingan holda kiritilgan. O‘quv fanining boshlang‘ich ta‘lim tizimining muhim tarkibiy elementi sifatidagi o‘rni va roli uning didaktik imkoniyatlari bilan belgilanadi. Zero, bu o‘quv fani o‘quvchilarda o‘qish ko‘nikma, malakalarini shakllantirish bilan birga ularning ma‘naviy-axloqiy sifatlarini, dunyoqarashlarini, ijtimoiy munosabatlar borasidagi hayotiy tajribalarini boyitishga xizmat qiladi.

“O‘qish” fanining umumiy tavsifidan kelib chiqqan holda uning didaktik imkoniyatlarini quyidagicha tizimlashtirish mumkin (1-rasm):



1-rasm. “O‘qish” fanining didaktik imkoniyatlari

Ta‘lim jarayonida “O‘qish” darslarining mavjud didaktik imkoniyatlaridan maqsadli foydalanish quyidagi natijalarni qo‘lga kiritish imkoniyatini yaratadi:



I. Savodxonlikni shakllantirish. Lug'aviy ma'nosiga ko'ra arabcha “سواد”

so'zidan olingan “savod” tushunchasi “o'qish-yozishdan xabardorlik” [15, – 416-b.] deya talqin qilinadi. Boshlang'ich sinflarda o'quvchilar garchi o'qish va yozish ko'nikmalarini “Alifbe” darslari orqali o'zlashtiradi. “O'qish” fani esa o'quvchilar tomonidan “Alifbe” darslari yordamida o'zlashtirilgan o'qish va yozish ko'nikmalarining davomli, izchil ravishda rivojlanib, sekin-asta takomillashib borishga xizmat qiladi. O'quvchilar kichik matnlarni yaxlit holda ravon, muayyan tezlikda, mazmunini tushungan holda mutolaa qilish bilan birga mazmunini qayta bayon etish, bayon qilingan voqea yoki hodisa yuzasidan o'z fikrini ifodalash, munosabatini namoyon etish kabi hayotiy muhim, ahamiyatli malakalarga ega bo'ladi. Bu holat uzluksiz ta'limning keyingi bosqichlari uchun poydevor vazifasini o'taydi.

II. Nutqni boyitish. Nutq “tilning alohida ijtimoiy faoliyat turi sifatidagi

muayyan yashash shakli” [8] sifatida lug'aviy ma'nosiga ko'ra “tilning fikr ifodalash va almashish jarayonida amal qilinishi” [15, – 67-b.] (ishtirok etishi) deya talqin qilinadi. Bolalar, shu jumladan, kichik maktab yoshi o'quvchilarining nutqini boyitishda asosiy e'tibor ularning lug'at zahirasi ko'paytirish, ular tomonidan yangi so'z va iboralarning o'zlashtirilishini ta'minlashga qaratilgan.

“O'qish” darsligi orqali taqdim qilinayotgan o'quv materiallari ularning mavzusidan kelib chiqqan holda o'quvchilarni ijtimoiy jarayonlar, tabiiy hodisalar, yil fasllari, turli kasbiy faoliyat tavsifi, vatanparvarlik, bilim olishning ahamiyat, milliy tarix, xalq og'zaki ijodi namunalari bilan tanishtiradi. Bu esa, tabiiyki, o'quvchilarda rang-barang mavzular bo'yicha yangi so'zlarni o'zlashtirish, mohiyatini anglash uchun keng imkoniyat yaratadi. Muloqot vaqtida ularni qo'llash esa o'quvchilar nuqtining boyishiga olib keladi. Lug'at zahirasi boy bo'lishi o'quvchilar tomonidan fikrni ochiq, ravon, tushunarli ifodalanishiga yordam beradi.

Boshlang'ich sinf (4 sinf) o'quvchilarida “O'qish” fani bo'yicha miqdoriy ko'rsatkich sifatida “1 daqiqada talaffuz va boshqa talablarga rioya qilgan holda 80-90 so'zni o'qiy olish, 30 daqiqada berilgan mavzu asosida 8-10 gapdan iborat matn yaratib fikr bayon qila olish; fonetika, imlo, talaffuz, tinish belgilar, so'z va uning ma'nosi, grammatika; so'z tarkibi, o'zak, qo'shimcha, mustaqil va yordamchi so'z turkumlari, nutq madaniyati; adabiy nutq va so'zlashuv nutqi” [11, – 30-b.]ga ega bo'lishdan iborat zaruriy va nazariy bilim elementlarni namoyon bo'lishi talab qilinadi. Manbalardan birida o'qish texnikasiga qo'yiladigan talablar boshlang'ich maktabning barcha sinflari bo'yicha “bir daqiqada 1-sinfda 25-30 ta, 2-sinfda 40-50 ta, 3-sinfda 60-70 ta, 4-sinfda 80-90 so'zni tashkil etish” [12, – 44-46-6.] zarur ekanligi ko'rsatilgan.

“O'qish” darslarida matnni ovoz chiqarib yoki ichida o'qish orqali o'quvchilar yangi so'z va iboralarni o'zlashtiradi, bu esa muloqotda erkin ishtirok etish imkonini kengaytiradi. Turli murakkablikdagi so'zlarni to'g'ri talaffuz qilish natijasida ularning og'zaki/yozma nutqi boyib, fikrni ravon ifoda etishni o'rganadi.

III. Fikrlash qobiliyatini rivojlantirish. Har bir shaxs fikrlash malakasiga ega. Biroq, bu jarayon har bir shaxsda turlicha kechadi. Ayrim shaxslar voqea, hodisa va jarayonlarning har tomonlama, chuqur tahlil qilgan hamda baholagan holda muayyan xulosaga keladi, boshqa bir guruh kishilar ularni yuzaki tahlil qilib, baholaydi, ammo ular yuzasidan xulosaga chiqarmaydi. Bu holat ijtimoiy subyektlarning turlicha fikrlash qobiliyatiga egaliklarini anglatadi. Fikrlash jarayoni “tafakkur” ham deb yuritiladi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining yosh va psixologik xususiyatlari, uzluksiz ta’lim tizimining tegishli bosqichiga xos xarakterli jihatlariga ko‘ra ularning fikrlash qobiliyati (tafakkuri) yegizida quyidagi sifatlar namoyon bo‘lishini ko‘rsatadi (2-rasm).

1. Aniq-obrazli tafakkurga egalik. Mazkur yosh davridagi bolalar asosan o‘zlari ko‘rgan, eshitgan va his qilgan hodisalarga, ya’ni, rasmlar, o‘yinchoqlar

yoki hayotiy voqeliklarga tayangan holda fikrlaydi. “O‘qish” darslarida o‘quvchilarni metafora, tashbeh, epitet kabi badiiy vositalar bilan tanishtirish ularning obrazli fikrlash qobiliyatini mustahkamlaydi.



2-rasm. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining fikrlash qobiliyati (tafakkuri)ga xos sifatlar

2. Mantiqiy aloqadorlik va bog‘lanishlarni tushunish qobiliyatiga egalik. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari evolyutsion (bosqichma-bosqich) rivojlanish asosida o‘zlari guvoh bo‘layotgan yoki o‘qilayotgan voqelik, jarayonlar, tanishilayotgan predmetlarning tarkibiy elementlari o‘rtasidagi sabab-oqibat munosabatlarining mazmunini anglay boshlaydi. Xususan, “Nima uchun qor oppoq?”, “Nima sababli qor uchqunlarining shakli rang-barang?”, “Nima uchun yomg‘ir yog‘adi?”, “O‘simliklar qanday qilib o‘sadi?”, “Chumchuqlar tunda qayerda uxlaydi?”, “Qishda hayvonlar sovuq qotmaydimi?”, “Kattalar nima uchun ishga borishadi?” va hokazo kabi savollarni berish va ularga javoblarni olish orqali tarkibiy elementlari o‘rtasidagi sabab-oqibat birligiga asoslangan bog‘liqlikni tushunad hamda mazmunini anglaydi.



**FARZAND TARBIYASIDA OTA-ONALAR ROLI:
ZAMONAVIY PEDAGOGIK VA
PSIXOLOGIK YONDASHUVLAR**
mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya



3. Taqqoslash va umumlashtirish malakasiga egalik. Boshlang'ich sinf o'quvchilari tomonidan o'zlashtiriladigan bilim (tushuncha)lar turli predmet, voqea, hodisa, jarayon va munosabatlarga xos jihatlarni o'zaro taqqoslash, o'zaro o'xshash xususiyatlarga oid ma'lumotlarni umumlashtirish asosida hosil bo'ladi. Tegishli yoshdagi bolalar tomonidan amalga oshiriladigan taqqoslash va o'xshash jihatlari qarang guruhlash ijtimoiy hamda tabiiy borliqqa xos xususiyatlarni katta-kichik, yaxshi-yomon, tez-sekin, baland-past tarzda baholash shaklida amalga oshiriladi.

4. Muammoni hal qilish (yechimni topish) qobiliyatiga egalik. Tegishli yoshdagi bolalar uchun xarakterli xususiyatlardan biri – ular tomonidan savollarning ko'p berilishi sanaladi; ularning bunday harakatlarining asosiy sababi ijtimoiy va tabiiy borliqni anglashga bo'lgan intilishdir. Savollarga olingan javoblar orqali ularning bilishga bo'lgan ehtiyojlari qondiriladi. Bu yoshdagi bolalar masalalarni yechish, o'yinlar jarayonida to'g'ri qarorga kelish orqali oddiy muammolarni mustaqil hal qilishga harakat qiladi. Ularning bu kabi harakatlarini rag'batlantirishning samarali yo'li ularga o'rganilayotgan mavzular bo'yicha qisqa, lo'nda savollar berish orqali javob topishga undash, garchi taqdim etilgan yechim noto'g'ri bo'lsa ham ularning ishtiyoqi, shijoatini so'ndirmaslik muhim hisoblanadi. Eng muhimi, ular tomonidan masalaning yechimi bo'yicha imkon qadar ko'proq takliflarning ilgari surilishiga erishish, o'qituvchining rahbarligi, ijobiy rag'batlantirishi asosida to'g'ri javobni topishga erishish bo'lib, bu jarayon ularning o'rganilayotgan muammoga bo'lgan qiziqishlarini ham oshiradi.

Shuni ham alohida qayd etib o'tish zarur, boshlang'ich sinf o'quvchilarida kitobxonlikni tarbiyalashda "O'qish" fanidan sinfdan tashqari sharoitlarda tashkil qilinadigan mashg'ulotlar ham muhim o'rin tutadi. Bu mashg'ulotlar jarayonida o'quvchilar tomonidan qo'shimcha adabiyotlarni o'qish, "Kitobxonlik soati" (o'qilgan kitob (asar)lar bo'yicha muhokamalarni tashkil etish), "Tez va ifodali o'qish", "Sinf kitobxoni" ("Yil kitobxoni"), "Kitobxonlik bo'yicha bellashamiz!", "Mening sevimli kitobi", "Sinfimizda kutubxona tashkil qilamiz" kabi bellashuv, loyihalarni amalga oshirish ularning kitob o'qitishga bo'lgan qiziqishlarini yanada kuchaytiriladi.

Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich ta'lim tizimida "O'qish" fani o'quv jarayonining tayanch ustuni sifatida namoyon bo'ladi. U nafaqat o'quvchilarda savodxonlikni shakllantiradi, balki ularning og'zaki va yozma nutqini rivojlantirish, mustaqil fikrlash qobiliyatini oshirish hamda atrof-muhitni anglash doirasini kengaytirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, mazkur fan orqali o'quvchilarning ijtimoiy munosabatlarga kirishish ko'nikmalari, muloqot madaniyati, badiiy did va ijodiy yondashuvi shakllanadi. Axborotni izlash, tahlil qilish va undan samarali foydalanish malakalarining rivojlanishi ham aynan shu fan doirasida mustahkamlanadi. Eng muhimi, "O'qish" fani o'quvchilarda kitobga muhabbat uyg'otib, ularni mustaqil bilim olishga yo'naltiruvchi muhim pedagogik omil sifatida xizmat qiladi.



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Визуализация (психология) // [https:// ru.ruwiki.ru/wiki/Визуализация_\(психология\)](https://ru.ruwiki.ru/wiki/Визуализация_(психология)).
2. Vizual // <https://uz.wiktionary.org/wiki/vizual>.
3. Дунёқараш // <https://qomus.info/encyclopedia/cat-d/dunyoqarash-uz>.
4. Интымакова Л.Г., Чередникова Н.П. Мировоззрение: структура и способы организации // Ж. Вестник Таганрогского института имени А.П.Чехова. – Таганрог: 2008.– № 1. – С. 18.
5. Колодий В.В. Визуальность как феномен и ее влияние на социальное познание и социальные практики: автореф. ... канд.филос.наук. – Томск: 2011. – С. 15.
6. Кондратьева Н.В. Сущность понятия “творческие способности” // Ж. Концепт. – М.: 2015. - № 09 (сентябрь). – С. 6.
7. Муминова Д.А. Бошланғич синф ўқувчиларида китобхонлик кўникмаларини ривожлантириш механизмини такомиллаштириш: пед.фанл.бўйича ... фалс.докт. (PhD) дисс. – Наманган: 2019. – 41-б.
8. Нутқ // <https://qomus.info/encyclopedia/cat-n/nutq-uz>.
9. Pedagogika. Izohli lug'at / B.Abdullayeva, M.Usmonbayeva va boshq. – Т.: “Innovatsiya ziyo” nashriyoti, 2020. – 141-б.
10. Педагогика / Нопедагогик олий таълим муассасалари учун мўлжалланган дарслик. У.И.Иноятов, Н.А.Муслимов, Д.И.Рўзиева, М.Ҳ.Усмонбоева. – Т.: ТДПУ, 2016. – 85-б.
11. Rajapova K.M. Nutqiy ko'nikmalarni rivojlantirishga tizimli yondashishning ilmiy-metodik asoslari (5-7 sinf ona tili darslari misolida): ped.fanl. bo'yicha fals.dokt. (PhD) ... diss. – Jizzax: 2022. – 30-б.
12. Uzviylashtirilgan davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi. Ona tili. O'qish. Matematika. Atrofimizdagi olam. Tabiatshunoslik. (1-4-sinflar). – Т.: Yangiyo'l poligraph service, 2010. – 44-46-б.
13. Чернышова С.А., Тарасова А.И. Формирование читательской культуры младших школьников на уроках внеклассного чтения // Ж. Молодой ученый. – Казань: 2015. - №22 (1). – С. 72-74.
14. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Е – М / 5 жилдли. Иккинчи жилд. А.Мадвалиев таҳрири остида. Таҳрир ҳайъати: Э.Бегматов ва бошқ. – Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2006. – 636-б.
15. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Н – Тартибли / 5 жилдли. Учинчи жилд. А.Мадвалиев таҳрири остида. Таҳрир ҳайъати: Э.Бегматов ва бошқ. – Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2007. – 67-416-б.